

“O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI VOSITASIDA TALABALARNING BADIY DIDINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI”

**Azimjonova Sarvinozxon Ravshanbek qizi,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI 2-bosqich magistranti**

Аннотация

Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz musiqasi vositasida talabalarning badiiy didini shakllantirishning nazariy jihatlari o‘rganilgan. Maqolada mumtoz musiqaning estetik ta’siri, talabalarda musiqiy did va madaniy ongni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, talabalarning musiqiy tarbiyasi va didini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar va metodik tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek mumtoz musiqasi, badiiy did, talaba tarbiyasi, estetik tarbiya, musiqiy ta’lim.

Аннотация

В статье исследуются теоретические вопросы формирования художественного вкуса студентов через узбекскую классическую музыку. Рассматривается эстетическое воздействие классической музыки, механизмы развития музыкального вкуса и культурного сознания студентов. Также анализируются педагогические подходы и методические рекомендации по формированию музыкального воспитания и художественного вкуса студентов.

Ключевые слова: Узбекская классическая музыка, художественный вкус, воспитание студентов, эстетическое воспитание, музыкальное образование.

Abstract

This article explores the theoretical aspects of developing students' artistic taste through Uzbek classical music. It examines the aesthetic influence of classical music, mechanisms for cultivating musical taste and cultural awareness among students, and pedagogical approaches. Additionally, methodological recommendations for fostering students' musical education and artistic taste are discussed.

Keywords: Uzbek classical music, artistic taste, student education, aesthetic education, music education.

Mumtoz musiqaning milliy madaniy meros sifatidagi ahamiyati insonning, xususan, yosh avlodning badiiy didini rivojlantirishda beqiyosdir. Milliy meros nafaqat o'tmish tajribalarini saqlab qoladi, balki yoshlarni ma'naviy va estetik jihatdan tarbiyalashda ham asosiy vosita vazifasini bajaradi. Musiqa, san'atining alohida turi sifatida emas, balki talabalarning badiiy didi va kasbiy madaniyatini shakllantiruvchi samarali vosita ekanligini ta'kidlash lozim. Mumtoz asarlar, xususan maqomlar, nafaqat milliy qo'shiqchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki bo'lajak musiqachilarda badiiy tafakkur va didni mustahkamlashga yordam beradi. Badiiy did – inson tomonidan yaratilgan go'zal va mukammal asarlarni tanlash, qadrlash, ularni yaratishga intilish hissini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak musiqachilarning badiiy didini shakllantirishda milliy musiqiy merosdan unumli foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mumtoz milliy musiqaning betakror namunasi bo'lgan maqomlarda musiqiy shakl va lad tuzilishi aniq ifodalanadi. Talabalarga maqomlar haqidagi chuqur tushunchalarni berish ularning badiiy didini rivojlantirishda muhim vositadir. Maqom sho'balari, ularning lad va tonallik tizimi,

na'mudlar (har bir maqomning o'ziga xos musiqiy lavhalari) talabalarga maqomni chuqur anglash imkonini yaratadi.

Masalan, Xorazm maqomlari tizimida "Rost" maqomi ladning I, II va V pardalari asosida ijro etiladi va bu maqomning turli sho'balarida takrorlanadi. Shu bilan birga "tani maqom" elementi maqomning barcha qismlarida o'z ifodasini saqlaydi. Boshqa maqomlarda esa (masalan, "Navo" yoki "Segoh") ladlar o'zgarishi orqali o'ziga xos estetik rang beriladi. Talabalar maqom sho'balari va na'mudlarni chuqur o'rganish orqali badiiy did va musiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Mumtoz qo'shiq va ashulalar ham yosh avlodning badiiy didini shakllantirishda muhim manbadir. Ular nafaqat musiqiy va ijro mahorati, balki chuqur mazmun va she'riy ma'no orqali tarbiyaviy rol o'ynaydi. Masalan, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy va boshqa klassik shoirlarning asarlari asosida yaratilgan qo'shiqlar talabalarda estetik did va mazmunni tushunish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, bastakorlar (Y. Rajabiy, T. Jalilov, D. Zokirov va boshqalar) tomonidan yaratilgan asarlar ham milliy an'analarga tayanib, yoshlar badiiy didini shakllantirishda xizmat qiladi.

Musika ta'limida bo'lajak o'qituvchilarni mumtoz qo'shiq va maqomlarni chuqur o'rganishga jalb qilish, ularni tinglash va ijro qilish ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim. Shu yo'l bilan ular:

- Musiqiy asarlarning mualliflari va ularning ijodiy merosi bilan tanishadi;
- Mumtoz musiqaning boshqa xalqlarning asarlaridan farqli xususiyatlarini anglaydi;
- Ijrochilik mahoratini rivojlantiradi va badiiy qiymatini baholashni o'rganadi;
- Bo'lajak o'qituvchilar uchun asarlarni tushuntira olish ko'nikmasini egallaydi.

Shu bilan birga, pedagoglarning metodik yondashuvi, mashg'ulotlarni tashkil etish uslubi va musiqiy manbalarni tanlash bo'yicha malakasi bo'lajak musiqachilarning badiiy didini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mumtoz musiqani

o'rganish jarayoni talabalarning nafaqat estetik didi, balki professional musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbek xalqi tarixida musiqa vositasida shaxs badiiy didini shakllantirish borasida to'plangan boy tajriba nasldan-naslga an'anaviy musiqiy bilim va ko'nikmalarni o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mumtoz qo'shiqlar, maqomlar va turli cholg'u asboblari yordamida ijro etilgan kuylashlar faqat ma'naviy-ma'rifiy vosita sifatida emas, balki estetik tajriba va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ham asosiy rol o'ynaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida badiiy didni shakllantirish jarayonida an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish muhimdir. Masalan, talabalar shaybalar tuzilishi, na'mud va avjlar mexanizmlari, maqomning lad va ritmikasi haqida nazariy bilimlar berilsa, amaliyotda ularni ijro qilish orqali to'liq tushunish va his qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ularning milliy musiqa merosiga bo'lgan hurmatini oshirish va ijodiy salohiyatlarini yuksaltirishda qo'l keladi.

Shu bilan birga, badiiy didni shakllantirishda yosh ustozlarning tajribasi va xonandalar ijro uslublari namuna sifatida ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida talabalar o'rganilayotgan asarlarning turli ijro variantlari bilan tanishadi, ularning har biri she'riy mazmun va musiqiy izohlarni qanday aks ettirishini o'rganadi. Bu jarayon ularning estetik his qilish qobiliyatini rivojlantirishda va o'ziga xos ijodiy tajriba to'plashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalar badiiy didini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, mumtoz qo'shiqlar va maqomlarning audio va video yozuvlari, interaktiv dasturlar orqali ularni tinglash va tahlil qilish orqali talabalar nazariy bilim va amaliyotni bir vaqtning o'zida egallaydilar. Bu esa, o'z navbatida, badiiy didning chuqurroq va tizimli shakllanishiga xizmat qiladi.

Badiiy didni shakllantirishda talabalar faol ishtiroki, ularning ijodiy fikrlash qobiliyati va mahoratini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Talabalar

shŷ‘balarni tinglab, ularni ijro etish, shuningdek, ularning mazmuni va musiqiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali o‘zbek mumtoz musiqasi merosini faol ravishda o‘zlashtiradilar. Bu jarayon ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida ham muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, milliy musiqiy merosning o‘rganilishi va uning pedagogik vosita sifatida qo‘llanilishi bolalar va yoshlar badiiy didini rivojlantirishda, ularda estetik va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Mumtoz qo‘shiqlar, maqomlar, cholg‘u asboblari va ijro uslublari orqali talabalar nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, balki milliy madaniy merosni chuqur his etish va qadrlash qobiliyatini ham rivojlantiradilar.

Adabiyotlar ro‘yhati:

- 1.I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir.O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti,Toshkent 1963.
- 2.I.Rajabov. Maqomlar. “San’at” nashriyoti. Toshkent 2006.
- 3.O.Ibroximov. Maqom va makon «Movarounnaxr»,Toshkent 1997.
4. Romanova S. Musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda milliy an‘analardan foydalanish //Xalq ta’limi j. – T.: 2004. 5-son.
5. Matyoqubov O. «Maqomot»,Musiqiy nashriyot, Toshkent. 2004.
- 6.O‘zbekiston milliy Ensiklapediyasi 7-jild.Toshkent. davlat ilmiy nashriyoti.2004.
- 7.O‘z.M.E.O‘zbekiston milliy entiklapediyasi.9-jild. Davlat ilmiy nashriyoti.2005.
8. R.S. Abdullayev «O‘zbek mumtoz musiqasi»,Toshkent «Yangi nashr»2008.
9. A.Fitrat. O‘zbek musiqasi va uning tarixi. «Fan»,Toshkent.1993